

**D.H.FAUZIYEVA,
N.F.NOROVA**

**HOT POTATOES
DASTURI
IMKONIYATLARI**



Hot potatoes dasturi imkoniyatlari. Uslubiy qo'llanma / Fayziyeva D.H., Norova F.F. / Buxoro: 2022 – 48 b.

Taqrizchilar:

BMTI “Axborot kommunikatsiya texnologiyalari”
kafedrasida dotsenti

Z.R.Muradova.

BuxDU Axborot texnologiyalari kafedrasida
dotsenti:

S.N.Sayidova

Mazkur uslubiy qo'llanmada bugungi kunda barcha ta'lim muassasalari uchun dolzarb bo'lgan ta'lim jarayonida axborot kommunikatsion texnologiyalarni qo'llash, ayniqsa filologiya fanlarini o'qitishda dasturiy vositalardan foydalanish haqida atroflicha bayon qilinadi.

Hot potatoes dasturi 1997-2003 yillarda ishlab chiqilgan.

•Dastur mualliflari: •Stewart Arneil, Martin Holmes.

•Martin Holmes dasturning 2003 yil oktyabr oyida chiqarilgan so'nggi, 6-versiyasining muallifi.

HotPotatoes yoki inglizchadan ruschaga tarjima qilingan "Issiq kartoshka"-bu har qanday fan bo'yicha talabalarni nazorat qilish va o'zlarini nazorat qilish uchun mustaqil ravishda interaktiv vazifalar va testlarni yaratish qobiliyatini ta'minlaydigan qobiq vositasi. Uning asosiy afzalliklari bu AKT mutaxassisi bo'lmasdan mustaqil ravishda interaktiv o'quv dasturlarini yaratishga imkon beradigan qiyosiy foydalanish qulayligi; bu yuklab olish uchun bepul kirish;

Bu yaratilgan turli xil o'quv vazifalari va ularda multimedia fayllaridan foydalanish qobiliyati.O'qituvchidan faqat ma'lumotlarni kiritish(savollar, javoblar ...va boshqalar) talab qilinadi. Qolganlarini dastur o'zi bajaradi.

•Dastur yordamida siz turli xil fanlarda matn, grafik, audio va video ma'lumotlardan foydalangan holda turli xil tillarda 10 turdagi mashqlarni yaratish mumkin.

Uslubiy ko'rsatma barcha ta'lim muassasalari o'qituvchi va o'quvchilariga, Hot potatoes dasturi yordamida interaktiv o'quv dasturlarini yaratishda foydalanish uchun asosiy ma'lumotlarni taqdim etadi.

Mazkur uslubiy qo'llanma BuxDU “Axborot texnologiyalari” kafedrasida yig'ilishida ko'rib chiqildi va 2022 yil 15 martdagi 9-yig'ilish bayonnomasi bilan tasdiqlandi.

BuxDU Axborot texnologiyalari fakulteti ilmiy kengashida ko'rib chiqildi va 2022 yil 16-maydagi 29-yig'ilish bayonnomasi bilan tasdiqlandi

Buxoro davlat universiteti
o'quv-metodik kengash 10-sonli
yig'ilishining bayonnomasidan

K O' C H I R M A

27.05.2022

Buxoro shahri

K U N T A R T I B I:

1. Turli masalalar.

Axborot texnologiyalari kafedrası o'qituvchilari D.H. Fayziyeva va F.F. Norovalarning 60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili ta'lim yo'nalishi uchun "Hot Potatoes dasturi imkoniyatlari" deb nomlangan o'quv uslubiy qo'llanma tavsiya etish.

E S H I T I L D I:

M.Y. Farmanova (kengash kotibasi) - Axborot texnologiyalari kafedrası o'qituvchilari D.H. Fayziyeva va F.F. Norovalarning 60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili ta'lim yo'nalishi uchun "Hot Potatoes dasturi imkoniyatlari" deb nomlangan o'quv uslubiy qo'llanmani nashrga tavsiya etishni ma'lum qildi. Ushbu o'quv uslubiy qo'llanmaga: BuxMTI Axborot kommunikatsiya texnologiyalari kafedrası dotsenti F.R. Muradova va Axborot texnologiyalari kafedrası dotsenti N.S. Sayidovalar tomonidan ijobiy taqriz berilgani ta'kidlandi. O'quv uslubiy qo'llanma muhokamasi haqidagi Axborot texnologiyalari fakulteti (2022-yil 16-may) va Axborot texnologiyalari kafedrası (2022-yil 15-mart) yig'ilish qarori bilan tanishtirdi.

Yuqoridagilarni inobatga olib o'quv-metodik kengash

Q A R O R Q I L A D I:

1. Axborot texnologiyalari kafedrası o'qituvchilari D.H. Fayziyeva va F.F. Norovalarning 60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili ta'lim yo'nalishi uchun "Hot Potatoes dasturi imkoniyatlari" deb nomlangan o'quv uslubiy qo'llanma tavsiya etilsin.

O'quv-metodik kengash raisi


O'quv-metodik kengash kotibasi

R.G'. Jumayev

M.Y. Farmanova



Davrimizning o'ziga xos xususiyatlaridan biri bo'lgan axborot kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi bilan uning mkoniyatlaridan foydalanib, ta'lim jarayoniga yangicha yondashish va uni tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. XXI asr — yuksak texnologiyalar asri bo'lib, zamonaviy yoshlarimiz nafaqat davr ruhiga monand, balki elektron olamdagi taraqqiyotga muvofiq qadam tashlamoqdalar. Shu boisdan ham, yosh avlodga ta'lim berish jarayoniga boshqacha yondashishni talab etmoqda. Darslarda o'qituvchining o'rni ham o'zgarib bormoqda. O'qituvchi endilikda asosan yo'naltiruvchi vazifasini o'tamoqda. Zamon bilan hamnafas qadam tashlashni maqsad qilgan o'qituvchilar darsning harqanday qismini pedagogik dasturiy ta'minotlar orqali jonlantirishga tayyor bo'lishlarini davr talab etmoqda.


Xorijiy tillarni o'rgatishda Hot Potatoes dasturi tarmoqda sinov mashqlarini tashkil qilish imkoniyatini beradi. Unda yaratilgan mashqlarni ixtiyoriy brauzer (Internet Explorer, Mozilla, Opera, Chrome, Finiks, Safari, Google,...) bilan ta'minlangan kompyuterda qo'llash mumkin. Mashqlar HTML va JavaScript da yaratiladi lekin siz bu tillar haqida hech qanday tushunchaga ega bo'lmasdan ham dasturni qo'llashinigiz mumkin. Aytmoqchimanki, bu dasturda dasturlash tillaridan xabari bo'lmagan foydalanuvchi ham bemalol unda har xil turdagi interaktiv mashqlarni yarata olishi mumkin[1.B.98]. Siz bajarishingiz kerak bo'lgan harakat sinov mashqidagi ma'lumot(savol, javob)larni kiritish va so'nggi amal  Создать Веб-страницы tugmasini bosishdan iborat bo'ladi. Hattoki, dastur interfeysini o'zbek tilida tashkil qilishingiz mumkin(Выбор-Интерфейс-Перевод интерфейса). Shuni ta'kidlash kerakki, dastur HTML va JavaScript tillarida ishlashni biladigan mutaxassislar uchun unda ixtiyoriy o'zgartirishlar kiritish imkonini beradi

Hot potatoes dasturida turli xildagi topshiriq va testlarni yaratish mumkin. Biror bir topshiriqni yaratish uchun tanlash mumkin bo'lgan beshta dasturdan mosini tanlash lozim. Buning uchun Hot Potatoes dasturini ishga tushirgandan so'ng, kartoshkali rasmlar yordamida zarur dasturni tanlash kifoya(1-rasm).



1-rasm

Bundan tashqari, **Potatoes** menyusi yordamida ham tanlash mumkin (2-rasm):



2-rasm


Zarur dastur tanlagandan so'ng, topshiriq matnini yoki nazariy manba kiritiladi. Har bir dastur uchun o'z qoidalariga muvofiq ularga savollar va javoblar tuziladi. Ushbu qoidalar har bir dasturning tavsifida keltirilgan. So'ngra, zarurat bo'lsa, topshiriq yoki testning konfiguratsiyasi sozlamasida o'zgartirishlar kiritish mumkin.

Konfiguratsiyani sozlash

Beshta dasturning har birida topshiriq va testlarni yaratishda, barcha dasturlar uchun umumiy bo'lgan sahifalar konfiguratsiyasini sozlash imkoniyati nazarda tutilgan, hamda har bir dastur uchun spesifik (maxsus) parametrlarni sozlash mumkin.

Konfiguratsiyani o'zgartirish mumkin bo'lgan muloqotni ishga tushirish uchun


anjomlar panelidagi tegishli tugmadan foydalanish yoki **Выбор-Вид веб-страницы** menyusi punktidan foydalaniladi(3-rasm).



3-rasm

Barcha dasturlar uchun umumiy sozlamalar quyidagilarni o'zgartirish imkonini beradi:

- ✓ topshiriqlarga sarlavha ostlari va ko'rsatmalar(**Nazvaniye/Instruksii** qo'yilmasi);
- ✓ yordam va teskari aloqa matnlari(**Подсказки/Комментарии** qo'yilmasi);
- ✓ tugmalar monlari va ulardan topshiriqlarda foydalanish (**Кнопки** qo'yilmasi);
- ✓ topshiriqlarni jixozlash – shrift, fon, matn ranggi va boshqalar(**Внешний вид** qo'yilmasi);
- ✓ topshiriqning bajarilish vaqtini chegaralovchi taymerni o'rnatish (**Таумер** qo'yilmasi);
- ✓ har bir dasturuchun spesifik (maxsus) parametrlar (**Другое** qo'yilmasi);
- ✓ malakali foydalanuvchilar uchun qo'shimcha parametrlar **Ползовател** va **CGI** bo'limlari).




4-rasm

Sozlashlarning katta qismi oʻrnatish tilida koʻrinadi, ammo ihtiyoriy vaqtda tilni oʻzgartirish mumkin. Buning uchun **Load/Загрузит** tugmasida sichqoncha chap tugmasi ikki marta bosiladi va ochilgan oynada *russian6.cfg* fayli tanlanadi. Oʻz xohishingizga koʻra barcha matnlarni oʻzgartirishingiz mumkin. Matnli sozlashlarning katta qismidan barcha beshta dasturda foydalaniladi. sozlashlarni saqlasg uchun shunchaki **Soxranit** tugmasi bosiladi yoki **Сохранит как** tugmasini bosib, yangi nom bilan fayl yaratiladi.

Топшириқларнинг ташқи кўриниши

Топшириқнинг ташқи koʻrinishini **Внешний вид** qoʻyilmasi yordamida oʻzgartirish mumkin. Koʻrsatilmaganda (*По умолчанию*) топшириқ uchun sahifaning oq foni, топшириқ matni uchun kulrang fon, harflar uchun qora fon oʻrnatilgan (tayinlangan).


Топшириқнинг har bir elementi rangi standart ranglar paritrasi yordamida tayinlanadi. Palitra zarur element maydoni yonida joylashgan kamalak rangli tugmani bosish orqali chaqiriladi (maydonda rang oʻn oltilik kod raqamlari bilan belgilangan). Barcha kiritiladigan oʻzgartirishlar darhol oynaning chap qismida joylashgan ekran namunasida akslanadi:



5-рasm

Topshiriq uchun fon tasvir berish mumkin, shuni unutmang-ki, fon uchun olingan tasvir topshiriqli sahifa joylashgan papkada bo'lishi lozim. Bundan tashqari, shriftni garnitura va o'lchami bo'yicha o'zgartirish ham mumkin. garniturani tanlash ko'zda tutilmagan, shu sababli, garnituraning nomini yozishingiz zarur bo'ladi. agar nomini bilmasangiz, u holda uni o'zgartirmaganingiz ma'qul. Shrift o'lchamlarini piksellarda berish mumkin. O'zgartirilgan konfiguratsiyani faqat joriy topshiriq uchun tadbiriq qilish mumkin – buning uchun “OK” tugmasini bosish zarur.

Yaratilgan konfiguratsiyadan dasturning boshqa topshiriqlarida foydalanish uchun konfiguratsiya faylini saqlash (**Сохранить** va **Сохранить как** tugmalari), so'ngra uni yuklash (**Файл конфигурации** oynasida **Загрузить** tugmasi) zarur




6-рasm

Таймер ni sozlash

Topshiriqni yoki testni bajarish uchun vaqtni chegaralash uchun quyidagi amallar bajariladi:

konfiguratsiyani sozlash oynasida **Таймер** qo'yilmasi tanlanadi(7-rasm);



7-rasm

Ограничение времени bo'limining **Установка временных ограничений задания** maydoniga bayroqcha o'rnatiladi;

- ✓ vaqt ko'rsatkichlari minutlarda va/yoki sekundlarda kiritiladi;
- ✓ **Ваше время истекло** maydonida talabada topshiriqni bajarish uchun vaqt qolmaganligi haqida xabar beruvchi matn kiritiladi.

Изох. Agar talaba topshiriqni bajarish uchun ajratilgan vaqt oralig'ida javob berishga ulgurmasa, topshiriq qayta yuklanadi va yana bir bor boshidan bajariladi.


Topshiriqlar va testlarni web-sahifaga almashtirish

Kiritilgan ma'lumotlarni (topshiriqlar, testlar va konfiguratsiya sozlanishlari) web-sahifa formatiga almashtirish va saqlash zarur.

Buning uchun **Файл** menyusining **Создать Web-страницу** punktidan yoki anjomlar panelidagi mos tugmadan foydalaniladi.


Agar topshiriq mashqlarning bir nechta formatini nazarda tutsa, menyusning bu punktida, va mos holda anjomlar panelida qo'shimcha punkt ostlari hosil bo'ladi.

Vazifa bir nechta mashq formatlarini taqdim etsa, ushbu menyu elementida va shunga muvofiq asboblardan panelida qo'shimcha sub-elementlar paydo bo'ladi.



8-rasm


Menyuning menyu osti tanlangandan yoki **Создать веб-страницу** tugmasi bosilganidan so‘ng **Сохранить как** oynasi hosil bo‘ladi. Bunda sahifa fayli nomini kiritish va saqlanishi lozim bo‘lgan papkani tanlash yoki yaratish zarur. HTML formatdagi sahifalarni saqlaydigan papkada saqlash qulay hisoblanadi. Topshiriqda joylashtirishni rejalashtirgan barcha rasmlar va metaobyektlarni shu papkaga joylashtiring.



9-rasm

***Изох.** Fayl nomida mavzuni va topshiriq tartib raqamini yoritish, hamda nomda rus harflari va bo‘shliqlardan (probelsar) foydalanmaslik tavsiya qilinadi. Chunki, bular topshiriqlar va testlarni serverga joylashtirish jarayonida muammolar keltirib chiqarishi mumkin.*

So‘ngra yana bir muloqot ochiladi— **Просмотр или загрузка задания.**



10-rasm

Bunda Siz taklif etilayotgan uch variantdan birini tanlashingiz mumkin:

- ✓ yaratilgan topshiriqni web-brauzerda ko‘rish(**Просмотр задания в моем браузере**);
- ✓ mashqni Hot Potatoes.net saytida joylashtirish (yuklash)(**Загрузить файл на Hot Potatoes .net**);
- ✓ hech narsa qilmaslik(**Ничего**).

Birinchi variant tanlanganda topshiriq o‘quvchi u bilan ishlaydigan ko‘rinishda taqdim etiladi. Topshiriqni nafaqat ko‘rish, balki bajarish ham mumkin. ko‘rish oynasi yopilganidan keyin dasturning topsdhiriqni yaratish ishchi ekraniga qaytish amalga oshadi. Qo‘shimcha ko‘rishdan so‘ng qandaydir o‘zgartirishlar kiritish zarurati yuzaga kelsa, buni amalga oshirish mumkin, so‘ngra avval yaratilgan sahifa faylini yana bir bor saqlash (almashtirish) talab qilinadi. Bu jarayon topshiriqda har qanday o‘zgartirish kiritilganidan so‘ng takrorlanadi.

Ikkinchi variant tanlanganda www.hotpotatoes.net saytidan foydalanish shartlariga rioya qilish zarur. Siz saytda ro‘yxatdan o‘tishingiz lozim. Bunda siz yaratgan topshiriqlar ma’lum muddatda tekin joylashtirilishi mumkin.

Uchinchi variant tanlanganida fayl topshiriqni qo‘shimcha ko‘rishsiz saqlanadi. Topshiriqni yaratish ishchi ekraniga qaytish amalga oshadi.

Topshiriqli loyihani saqlash

Topshiriqli web-sahifalarga o‘zgartirishlar kiritib bo‘lmaydi. Shu sababli, topshiriq loyahasini saqlash zarur. Buni ixtiyoriy vaqtda bajarish mumkin:

- ✓ topshiriq va testlarni yaratishni, hamda konfiguratsiyasozlanishlarini tugalagandan so‘ng;
- ✓ yaratilgan web-sahifani ko‘rgandan keyin;

✓ dasturdan chiqishda.

Loyiha fayli standart usulda saqlanadi:

Файл menyusining **Сохранить** yoki **Сохранить как** menyu ostlari yoki anjomlar panelining mos tugmalari yordamida

Beshta dasturning har biri uchun loyiha fayli o'z kengaytmasi va piktogrammasiga ega.

Izoh. The Masher dasturi yordamida bir darsga birlashtirilgan topshiriqlar loyihasi fayli The Masher dasturi piktogrammasi bilan belgilanadi va o'z kengaytmasiga ega.


Topshiriq yoki test		Piktogramma	Fayl nomi kengaytmasi
JQuiz	Viktorina (ko'p tanlovli javob)		*.jqz
JCloze	Bo'shliqlarni to'ldirish		*.jcl
JCross	Krossvord		*.jcw
JMix	Ketma-ketlikni tiklash		*.jmx
JMatch	Moslik o'rnatish		*.jmt
The Masher	Anjomlar		*.jms

11-rasm

Sahifalar va loyihalar fayllarida oson harakatlanish uchun berilganlar fayli va sahifa fayllariga bir xil nom berib, loyihalar faylini yaratilgan sahifalar bilan birga bitta papkada saqlash tavsiya qilinadi.

Topshiriqlarni chop qilish

Barcha topshiriqlarni chop qilish mumkin. dasturdan chop qilish uchun **Файл** menyusida **Экспорт на печать** punkti tanlanadi. Barcha zarur axborot almashinuv buferida matn ko'rinishida saqlanadi. So'ngra ixtiyoriy matn redaktorini ishga tushirib, buferdan qo'yishni amalga oshirish mumkin. barcha topshiriqlar va testlar javoblari bilan birga chop qilinadi.



12-rasm

Krossvord web-brauzerdan chop qilish uchun maxsus yaratilgan web-sahifa ko‘rinishida chop qilinadi.

Topshiriqlarni darslarga va tematik bloklarga birlashtirish

Yaratilgan topshiriqlar va testlarni bitta bloklarga, darslarga va darslar seriyasiga turli usullar bilan birlashtirish mumkin. Eng sodda usuli Hot Potatoes tarkibiga kiruvchi The Masher dasturidan foydalanish hisoblanadi. Bu dasturning har qanday imkoniyatidan foydalanish uchun unga pul to‘lash zarur(13-rasm).




13-rasm


Bo‘shliqlarni to‘ldirish (JCloze)

Bo‘shliqlarni to‘ldirish – bu bo‘sh qoldirilgan joylarga (probellar)

soʻz yoki harf qoʻyishni talab qiluvchi yopiq tipdagi savollar. **JClose** dasturining bosh oynasi quyidagi rasmda keltirilgan



14-rasm



15-rasm


Topshiriqni kiritish

Topshiriqlarni kiritish uchun quyidagi amallar bajariladi: **Hot Potatoes** dasturi ishga tushiriladi va ekranda yoki **Potatoes** menyusida **JClose** dasturi tanlanadi. Natijada dasturning ishchi oynasi ochiladi (*yuqorida keltirilgan 14-15-rasm*).

Siz **Имя** maydoniga topshiriq yoki testning sarlavhasini kiritishingiz mumkin. Soʻngra boʻshliqlar qoldiriladigan matn kiritiladi. Matn katta matn maydoniga kalviatura orqali kiritiladi yoki ixtiyoriy hujjatdan nusxalanadi.

Nabatdagi qadamda tushurib qoldiriladigan yoki berkitib qoʻyiladigan soʻz yoki harf tanlash lozim boʻladi. Tanlangandan soʻng **Пробел** tugmasi (ekranda) bosiladi.


Ochilgan **Альтернативные слова** muloqot oynasida toʻgʻri javob sifatida qabul qilish mumkin boʻlgan barcha soʻzlarni qoʻyishingiz lozim. Soʻzning matndagi tartib raqami **Пробел №** maydonida koʻrsatiladi, soʻzning oʻzi esa **Слово** maydonida. **Определение** maydoni soʻzga tushuntirish qoʻyish imkonini beradi. Odatda bu punkt boʻsh qoldiriladi, chunki savol shundayaxshi koʻrinadi.



16-rasm

Soʻngra muloqotni yopib, boʻshliq uchun navbatdagi soʻzni tanlash va toʻgʻri javoblarni qoʻyishni davom ettirish mumkin. Boʻshliq sifatida belgilangan soʻz yoki harflar matnda avtomatik ravishda qizil rang va ostki chiziq bilan ajratiladi.

Matnda boʻshliq uchun soʻzlarni tanlash ketma-ketligi ahamiyatga ega emas, chunki barcha tushurib qoldirilgan soʻzlar matn boshidan boshlab avtomatik ravishda tartiblanadi.



17-rasm


Topshiriqni toʻldirishni tugallagandan soʻng loyihani saqlash, hamda uni HTML-sahifa koʻrinishida chop qilish lozim.

Mashqni tahrirlash

Mashqda tushurib qoldiriladigan soʻzlarni oʻzgartirish uchun **Удалить пробел** va **Очистить пробелы** tugmalaridan foydalaniladi.

Показать слова tugmasi taxrirlash muloqot oynasiga oʻtish imkonini beradi. Taxrirlash tushurib qoldirilgan soʻzlarni tartib raqami boʻyicha bajariladi.

Автопробел tugmasi esa, matndagi har bir n-chi tartibli soʻzni probelli (tushurib qoldirilgan) koʻrinishga oʻtkazish imkonini beradi. Bu tugma bosilganida avtomatik ravishda tushurib qoldiriluvchi soʻzlar nomerini koʻrsatishingiz mumkin boʻlgan muloqot oynasi ochiladi.




18-rasm

Konfiguratsiyani sozlash


Oʻqituvchining xohishiga koʻra tushurib qoldirilgan soʻzlarni alohida savol satrida chiqarish yoki chiqarmaslik mumkin.

Bunday imkoniyatdan foydalanish uchun **Другое** qoʻyilmasida sahifa konfiguratsiyasini sozlashda **Включать список слов наряду с основным текстом** bayroqchasini qoʻyish yoki olib tashlash lozim (19-rasm).



19-rasm

Agar **Использовать выпадающий список вместо текстового окошка**, bayroqchasini o‘rnatadigan bo‘lsangiz, u holda topshiriq boshqacha ko‘rinishda bo‘ladi.




tushirib qoldirilgan so'zlar o'rmini to'ldiring

Alisher Navoiy 1441-yil 9- fevralda shahrida tug'ildi. Uning Tushirib qoldirilgan so'zlar ro'yxati r necha qarindoshlari temuriylar saroyiga yaqin turgan amaldor , buvilari esa temuriy shag'zodalarning enagalari bo'lgan. Alisher go'dakligida temuriy shag'zodalar bilan birga tarbiyalandi. To'rt yoshida o'qishga berdilar. Ziyrak va qobilyatli Alisher maktabdagi boshqa bolalardan ajralib tura ning diqqatini o'ziga jalb qilar edi.

20-rasm

Проверка ответа с учетом регистра bayroqchasi javobda bosh va satrliharflarni farqlash imkkonini beradi.

Использовать возможность набора шрифтов на клавиатуре bayroqchasi esa, matnda tushurib qoldirilgan so‘zlarni kiritishda foydalanish mumkin bo‘lgan, harfli klavishlar to‘plamini chiqarish imkonini beradi.



tushirib qoldirilgan so'zlar o'rmini to'ldiring


aristokrat Hirot kichkina

Alisher Navoiy 1441-yil 9- fevralda shahrida tug'ildi. Uning otasi G'iyosiddin bir necha qarindoshlari temuriylar saroyiga yaqin turgan amaldor , buvilari esa temuriy shag'zodalarning enagalari bo'lgan. Alisher go'dakligida temuriy shag'zodalar bilan birga tarbiyalandi. To'rt yoshida o'qishga berdilar. Ziyrak va qobilyatli Alisher maktabdagi boshqa bolalardan ajralib turar va kattalarning diqqatini o'ziga jalb qilar edi.

21-rasm

Har qanday tushurib qoldirilgan so‘zga aniqlanish yoki yordam kiritish mumkin va ularga topshiriqni bajarish jarayonida murojaat qilish mumkin. Bundan tashqari, har bir javobning alternativ to‘g‘ri javoblari bo‘lishi mumkin.

Izoh. To‘g‘ri javob variantlari va ko‘rsatmalarni barcha tushurib qoldirilgan so‘zlarga chiqarish shart emas.




22-rasm

Agar topshiriqqa yordamlar kiritilgan bo'lsa, u holda ular har bir yordam biriktirilgan so'zdan keyin joylashgan tugmani bosish orqali chaqirilishi mumkin.




23-rasm

Файл конфигурации muloqotida joylashgan **Кнопки** qo'yilmasidan foydalangan holda bu tugmadagi matnni o'zgartirish mumkin. Bu tugma tasvirlanishi uchun **Использовать кнопку «Определение» для...** satriga bayroqcha o'rnatish, tugmada chiqariladigan matnni **Надпись** maydoniga joylashtirish zarur. Bu matn imkon qadar kichik bo'lishi maqsadga muvofiq, aks holda tugma xunuk ko'rinadi(24-rasm).



24-rasm

JClose dasturi yordamida yaratilgan topshiriqlar ko'rsatilmaganda (*no umolchaniyu*) HTML-sahifa ko'rinishida saqlanganda o'quvchi ismini so'rovchi kod qo'shib qo'yadi. Shunchaki bu kodni o'chirib tashlash uchun topshiriq konfiguratsiyasi muloqotida CGI qo'yilmasiga kiring va **Отправить результаты по e-mail** satridan bayroqchani olib qo'ying.



25-rasm

Hot Potatoes dasturining **JQuiz** dasturida to'rt xil turdagi sinov mashqlarini tashkil qilishi mumkin: alternativ, qisqa javobni yozish, gibril (qisqa javobning savoli bir necha urinishlardan so'ng alternativ savol ko'rinishiga keladi), multi tanlovli (bunda ta'lim oluvchi berilgan variantlardan bir nechtasini to'g'ri deb tanlab olishi mumkin).

Alternativ sinov mashqida ta'lim oluvchi javob variantlaridan birini tanlaganida quyidagi holat yuz beradi. Agar javob to'g'ri bo'lsa, :-) (smayl) aks holda X belgisi chiqadi. Shu bilan birga ta'lim oluvchi berilgan javob nima uchun to'g'ri yoki noto'g'riligi haqida izohni ko'rishi mumkin. Agar javob noto'g'ri berilgan bo'lsa, ta'lim oluvchi to'g'ri javobni topgunicha tanlashda davom etadi. Baholash albatta mos ravishda urinish sonlariga nisbatan belgilanadi. Ta'lim oluvchi to'g'ri javob berishi bilan bahosi belgilanadi. Lekin dastur ta'lim oluvchi to'plagan bahosini yo'qotmagan holda, qolgan alternativ javoblarning izohlari bilan ham tanishib chiqish imkonini beradi. Buning uchun alternativ javoblar tugmasini bosish kerak bo'ladi. Bu imkoniyat ta'lim oluvchida alternativ fikrlashni rivojlantirib, Yechim variantlarini taqqoslash va baholash ko'nikmasini shakllantiradi.[2.B.105]

Savol quyidagi ko'rinishda tuziladi. Multi tanlovli topshiriq turida ikki va undan ortiq to'g'ri javob varianti beriladi.

Q2 choose the uncountable noun? Multiple-choice

	Answers	Feedback	Settings
A	butterfly		<input type="checkbox"/> Correct
B	water		<input checked="" type="checkbox"/> Correct
C	notebook		<input type="checkbox"/> Correct
D	sand		<input checked="" type="checkbox"/> Correct

26-rasm

choose the uncountable noun?

- A. butterfly
- B. water
- C. notebook
- D. sand

Synonym of Bloom

x

27-rasm.

28-rasm.

JQuiz ning *qisqa* javobni yozish sinov mashqi ko‘rinishida esa, ta’lim oluvchi javobni yozishi kerak bo‘ladi (3-rasm). Bunda ta’lim oluvchi Hint tugmasidan foydalanishi mumkin. Bu tugma so‘zni tashkil etuvchi harflarini bittadan ko‘rsatib, yordam berish vazifasini o‘taydi. Bunda baholash mos ravishda murojaatlar soniga bog‘liq bo‘ladi. Sinov mashqining bu shakli so‘zlarni yodda tutishga undash bilan birgalikda, uni orfografik xatosiz yozishni o‘rgatadi.

Viktorina(JQuiz)

Imkoniyatlari. Bu dastur yordamida savollarga javoblarni turli variantlarda (ko‘rinishlarda) taqdim etuvchi testlar yaratilishi mumkin:

- alternativ tanlov – bir necha variant javoblar ichidan bitta to‘g‘ri javob;



30-rasm

- ko‘p qiymatli tanlov – bir nechta to‘g‘ri javob;

Alisher Navoiy
alternativ tanlov

Navoiy tug‘ilgan yurt

A. Hirot

B. Bag‘dod

C. Qobul

D. Turkiston

29-rasm

Alisher Navoiy
ko‘p qiymatli tanlov

Navoiy kim?

a. davlat arbobi

b. yozuvchi

c. shoir

d. naqqosh

31-rasm

- qisqa javob –ochiq tipdagi qisqa javob (kalviatura orqali kiritiladi);

2+2=

Check Hint Show answer

32-rasm

➤ aralash variantli javob – ochiq tipdagi javob va ko‘p tanlovli javob ko‘rinishidagi savollarini birlashtiradi: noto‘g‘ri javob kiritilganidan so‘ng (noto‘g‘ri javoblarning mumkin bo‘lgan soni topshiriqni yaratish jaraenida o‘rnatiladi) qisqa javobli topshiriq ko‘p tanlovli topshiriqqa transformatsiyalanadi (o‘zgartiriladi).

2+2=

Check Hint Show answer

33-rasm

Alisher Navoiy
ko'p qiymatli tanlov

Navoiy kim?

a. davlat arbobi
b. yozuvchi
c. shoir
d. naqqosh

Check

34-rasm

Bitta test yoki topshiriqqa turli tipdagi bir nechta savollarni kiritish mumkin. Mashqadagi savollar soni cheklanmagan.


Topshiriqni bajarishda o‘quvchi topshiriqlarni bittadan savol ko‘rsatish èki barcha savollarni ko‘rsatish rejimini tanlashi mumkin. Buning uchun testning yuqori o‘ng burchagida joylashgan **Покажи всевопросы** tugmasidan foydalaniladi.



35-rasm

Viktorinaga topshiriq kiritish

Hot Potatoes dasturi ishga tushiriladi, ekranda yoki **Potatoes** menyusida **JQuiz** dasturi tanlanadi. Natijada dasturning ishchi oynasi ochiladi.



36-rasm

Ochilgan ishchi oynaning **Имя** maydoniga mashqning sarlavhasi kiritiladi. Navbatdagi qadamda **В** maydonida savol nomeri tanlanadi va savol matni kiritiladi. Soʻngra oʻng tomondagi ochiluvchi roʻyxatdan savol tipi tanlanadi. **ОТВЕТЫ** maydonlariga javoblar kiritiladi.

Верно maydonida toʻgʻri javoblar belgilanadi (bayroqcha qoʻyiladi).

Изоҳ. Qisqa ochiq javobli savolda ham bitta, ham bir nechta toʻgʻri javoblar variantlari boʻlishi mumkin.

Комментарии maydonida alohida javoblarga izoh kiritib ketishingiz mumkin. Navbatdagi savolga oʻtish uchun savol nomeri maydoni yonidagi

strelkadan (ko‘rsatkichdan) foydalaniladi.

Gibrid sinov mashqida alternativ savol bilan qisqa javobni yozish mashqi kombinatsiyalashadi. Ya’ni ta’lim oluvchi bir necha Hint yordamchi tugma urinishlardan so‘ng ham javobni yozishda qiynalsa(4-rasm), Check tugmasini bosishi bilan savol alternativ ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Albatta bunda ham baholash mos ravishda murojaatlar soniga bog‘liq bo‘ladi.

Antonym of Person ?

Check | Hint | Show answer

<= | 4 / 5 | =>
Please enter a guess.
OK


37-rasm

Multi tanlovli sinov mashqi tashkil qilinganda javob variantlaridan bir nechtasi to‘g‘ri bo‘lishi mumkinligi nazarda tutilishi lozim. Ta’lim oluvchi to‘g‘ri javoblarni barchasini tanlamaguncha baho e‘lon qilinmaydi(1-rasm va). Bu sinov mashqi an’anaviy alternativ test sinovidan farq qilib, ta’lim oluvchi fikrlash doirasini kengaytiradi.

Topshiriqlarni/testlarni tahrirlash


Topshiriqni tahrirlash **Управление вопросами** menyusi yordamida bajariladi. Menyuning bu punkti bir nechta punkt ostilarga ega:

- topshiriqdagi savollar tartibini o‘zgartirish,
- savolni o‘chirish,
- yangi savol qo‘shish,
- savolni nusxalash yoki ko‘chirish,
- topshiriqda/testdasavollarni aralashtirish.



38-rasm


Menyuning **АВТООТВЕТ** punkt ostisi o'quvchining to'g'ri va noto'g'ri javoblariga sharh



39-rasm

(tushuntirish) kiritish imkonini beradi(39-rasm).

Savol nomeri maydonida zarur savolni tanlab, unga, zarurmaydoni
Savollarni kiritgandan so'ng, loyihani saqlashni va
web-sahifayaratishni unutmang(40-rasm).



40-rasm


So'ngra, **Файл-Новый** menyusidan foydalanib yoki bu dasturni

yopib va **Hot Potatoes** to'plamidan yangi dasturga o'tib, hamda, yangi topshiriq yoki test yaratish, yoki **Hot Potatoes** ishini tugallashingiz mumkin.


Konfiguratsiyani sozlash

JQuiz dasturida topshiriqlar konfiguratsiyasini sozlash uchun qo'shimcha imkoniyatlar taqdim etiladi. **Файл конфигурации** muloqotida **Другое** qo'yilmasini tanlab, quyidagilarni bajarish mumkin;

- ✓ topshiriqning har bir yuklanishida savollar tartibini o'zgartirish;
- ✓ birinchi urinishda to'g'ri javob berilgan savollar sonini ko'rsatish;
- ✓ har bir to'g'ri javobdan keyin umumiy bahoni ko'rsatish;
- ✓ javobni tekshirishda harflar registrini (satrli, bosh harf)e'tiborga olish;
- ✓ boshqa mumkin bo'lgan to'g'ri javoblar ro'yxatini ko'rsatish;
- ✓ qisqa javobni kiritishda, savol ko'p tanlovli javobga transformatsiyalanuvchi (aralsh tipdagi savollarda foydalaniladi) urinishlar sonini o'rnatish;
- ✓ ekran klaviaturasidan foydalanish (qisqa javoblar uchun);
- ✓ berilgan sondagi savollarni ekranga chiqarish.




Bundan tashqari, foydalanuvchilar javobning to‘g‘rilik darajasini baholash; testlash rejimini qo‘shgan holda qisman to‘g‘ri javoblar hisobini yuritish imkoniyatidan foydalanishlari mumkin. Qo‘shimcha imkoniyatlardan foydalanish uchun topshiriqlar sozlamasining **Выбор** menyusi **Составитель** punktining **Бывалый** rejimini (malakali foydalanuvchi rejimi) tanlash zarur.



42-rasm

Savolning vazni

Malakali foydalanuvchilar (*Бывалый*) uchun rejimni o‘rnatishda savolning nisbiy muhimligini berishingiz mumkin(42-rasm). Bu **Вес** (Vazn) muloqoti erdamida amalga oshiriladi. Siz savolning vaznini 0 dan 100 gacha diapozonda (oraliqda) o‘rnatishingiz mumkin. Bunda savolga to‘g‘ri javobda olingan ochkolar vaznning qiymatiga teng marta kattalashadi.



43-rasm


Testning boshlanishida vazni nolga teng bo‘lgan va umumiy holda test natijalarida hisobga olinmaydigan ikki-uchta savol yaratishingiz mumkin.

Javoblarning foizli ehtimolligi

Bunday imkoniyatda javob ehtimolligining foizini oʻrnatish mumkin. Baʼzi savollar 100%li ehtimollik bilan javobga ega boʻlishi mumkin – bu absolyut toʻgʻri javob, hamda bir nechta javoblar – qisman toʻgʻri. Bunday yoʻl bilan qisman toʻgʻri javob bergan oʻquvchilarni ragʻbatlantirish mumkin.

5.1. Toʻgʻri sifatida qabul qil oʻrnatgichi

Toʻgʻri sifatida qabul qilish (*Принят как верный*) bayroqchasi javobning toʻgʻriligini foizlarda baholash imkonini beradi. Agar javob toʻla toʻgʻri boʻlmasa ham, u qabul qilinadi. Bunday savolga toʻgʻri javob uchun takroriy urinishlar berilmaydi.



44-rasm

JCloze dasturida sinov mashqi quyidagicha tashkil qilinadi. Gapning orasiga shunday kiritish maydonchalar tashkil qilinadiki, bu maydonchadagi soʻzlar gapning kaliti hisoblanadi. Yaʼni kalit soʻz gapni toʻldiradi. Bunday maydonchalarni xohlagancha tashkil qilish mumkin. Har bir kalit soʻzga yordamchi izohlar tashkil qilish mumkin. Buning uchun gapdagi tushirib qoldiriladigan soʻz belgilab olinib "GAP" tugmasi bosiladi va natijada tushirib qoldiriladigan soʻzning qizil rangga oʻzgaradi (5-rasm). Shu oʻrinda taʼlim oluvchi yana Hint yordamchi tugmaga murojaat qilib toʻgʻri javobning harfma-harf tashkil qilishi ham mumkin (6-rasm). Undan tashqari dastur bir necha kalit soʻzlar roʻyxatini tashkil qilishi va taʼlim oluvchi toʻgʻri soʻzni tanlash orqali ham javob berish shaklini tashkil qilish mumkin. Buning uchun fayl konfiguratsiyasini oʻzgartirish kerak. [3.B.192]

Title

fill in the gaps

What kind *of* skills *are* people losing?
What *is the* practical consequence of all this ?


45-rasm

What kind of skills are people losing?
What is the practical consequence of all this ?

Check Hint

46-rasm.

JCross dasturida krossvordlar yaratish mumkin. Setkani xohlagan o‘lchamda tashkil qilish mumkin. YUqoridagi dasturlarda aytib o‘tilganidek, yordamchi Hint yordamchi tugma imkoniyati bunda ham mavjud(7-rasm).[4.B.65] Sinov mashqini krossvord ko‘rinishida tashkil qilish, sinovni qiziqarli mashg‘ulotga aylantiradi. Bunda ta’lim oluvchi savollarga javob berish jarayonida, so‘zlarni orfografik yozilishini ham o‘rganadi(8-rasm).



47-rasm

Across: 5: Place which near the sea Enter Hint



Check


48-rasm.

Krossvord (JCross)

JCross dasturi krossvordlarni tezda yaratish uchun mo'ljallangan. Topshiriqning bu turi maktabda juda ommaviy hisoblanadi.

Krossvord tuzish

Krossvord tuzish uchun **Hot Potatoes** dasturi ishga tushiriladi va **Potatoes** menyusida **JCross** dasturi tanlanadi yoki **Hot Potatoes** ekranida mos kortoshkada sichqoncha tugmasi bosiladi



49-rasm

Имя maydonida krossvord nomini kiritish lozim. Krossvordda so'zlarni joylashtirish uchun ikkita rejim mavjud:


- ✓ so'zlarni qo'lda joylab chiqish;
- ✓ so'zlarni avtomatik joylashtirish.

So'zlarni qo'lda joylab chiqishda setkada so'zlarning joylashuvi foydalanuvchi tomonidan aniqlanadi: so'z krossvord maydoniga maydongaharfma-harf kiritiladi.



Krossvordni avtomatik shakllantirish uchun anjomlar panelida **Автоматическое**


создание tugmasini bosish yoki **Управление сеткой – Автоматическое создание** меню пунктini tanlash zarur(50-rasm).



51-rasm

Soʻzlarni avtomatik joylashtirishda ochilgan muloqot oynasida barcha soʻzlar soʻzni kiritish maydoniga roʻyxat koʻrinishida kiritiladi. Bunda har bir soʻz alohida satrda kiritiladi. Soʻngra dastur ularni joylashtirish variantlarini tanlaydi.


Максимальный размер maydonida krossvorddagi maksimal katakchalar soni koʻrsatiladi. **Создать сетку** tugmasida sichqoncha tugmasini bosish krossvordning yaratilishiga olib keladi.



52-rasm

Izoh. Ekraning chap quyi qismida yo‘nalish-tugmalar èrdamida yaratilgan krossvordni maydon ramkalarida ko‘chirish mumkin.

Navbatdagi qadamda so‘zlarga aniqlanishlar kiritish kerak bo‘ladi. Bu aniqlanishlar ko‘rsatilgan so‘zni baèn qiladi. Aniqlashlarni kiritish uchun **Определения** tugmasini bosish zarur. Natijada **Определения** muloqot oynasi ochiladi.




53-rasm

Ekraning yuqori qismida krossvordda gorizontal joylashtirilgan so‘zlar chiqariladi, quyi qismida esa – vertikal bo‘yicha. Aniqlanishini kiritish uchun ro‘yxatdan zarur so‘z tanlanadi, ro‘yxat ostidagi maydonga aniqlanish yoziladi va tasdiqlash uchun **OK** tugmasi bosiladi. Aniqlanishlarni kiritish ketma-ketligi ahamiyatsiz, ya‘ni ixtiyoriy tartibda.

Aniqlanishlar kiritib bo‘linganidan so‘ng, setkaga (to‘rga) ixtiyoriy o‘zgartirishlar kiritish mumkin. So‘zlar ko‘chirilganda dastur unga mos aniqlanishlarni saqlab qoladi.

Qo‘shimcha sozlashmalar

Topshiriq konfiguratsiyasida qo‘shimcha sozlanishlarni **Выбор – Вид web-страницы** menyusi orqali berish mumkin(54-rasm).



54-rasm

Har bir soʻzning aniqlanishi, gazeta va jurnallardagi krossvordlardagi kabi bir vaqtda yoki bittadan aniqlanish chiqishi mumkin. Bunday tasvirlash rejimini tasvirlash uchun **Показывать все определения внизу кроссворда** bayroqchasidan foydalaniladi. Soʻngra loyihani saqlash va krossvordni HTML-sahifa koʻrinishida chop qilish lozim. Har bir soʻzning aniqlanishi, gazeta va jurnallardagi krossvordlardagi kabi bir vaqtda yoki bittadan aniqlanish chiqishi mumkin. Bunday tasvirlash rejimini tasvirlash uchun **Показывать все определения внизу кроссворда** bayroqchasidan foydalaniladi. Soʻngra loyihani saqlash va krossvordni HTML-sahifa koʻrinishida chop qilish lozim.

Topshiriqni bajarish

Topshiriq-krossvordni bajarish quyidagicha amalga oshiriladi. Oʻquvchi krossvordda soʻzning birinchi katakchasini tanlaydi. Bunda sichqoncha tugmasi bosilganida, soʻzlarning toʻliq roʻyxati va aniqlanishlarning bor yoki yoʻqligidan qatʼiy nazar, mos soʻzning aniqlanishi namoyon boʻladi:




55-rasm

Krossvordni to‘ldirish ketma-ketligi ixtiyoriy ravishda. Barcha katakchalar to‘ldirilganidan so‘ng, to‘ldirishning to‘g‘riligini tekshirish mumkin.

Krossvordni chop qilish

Krossvordni ikki xil usulda (ko‘rinishda) chop qilish mumkin: to‘ldirilmagan va to‘ldirilgan. Chop qilish uchun talqinni yaratish uchun **Файл – Экспорт для печати** menyusidan foydalanish mumkin.


Ekranida krossvordni olgan oq-qora variantda web-sahifa ko‘rinadi. Sahifani chop qilish **Файл – Печать** menyusi yordamida brauzer orqali ham amalga oshirilishi mumkin.




56-rasm

Yechilgan krossvordli sahifa variantini chop qilish uchun olingan sahifada krossvord nomida sichqoncha chap tugmasini bosish lozim. Nomda takroriy bosish boshlang‘ich variantga qaytaradi – yechilmagan

krossvordli sahifaga.



57-rasm



58-rasm




59-rasm

Moslik oʻrnatish (JMatch)

Moslik oʻrnatish savollari – savollarning eng ommaviy tiplaridanbiri

hisoblanadi. Bunday tipdagi savollarga quyidagicha ko‘rinishdagi savolni keltirish mumkin;

So‘zlar to‘plamlari o‘rtasida o‘zaro moslik o‘rnatish



60-rasm

Bunday tip savollar tartibini so‘zlar yoki harakatlarning ketma-ketkelish tartibini ko‘rsatish imkonini beradi.

Masalan, savol quyidagicha ko‘rinishda bo‘lishi mumkin;

– *So‘zlarni alifbo tartibida joylashtiring: olma, ananas, olxo‘ri, qovoq.*

Topshiriqlar uchta formatda taqdim etilishi mumkin:

- ✓ Elementlarni sichqoncha orqali ko‘chirib moslikni o‘rnatish;
- ✓ ochiluvchi ro‘yxatdan mos keluvchi variantni tanlash;
- ✓ mosliklarni to‘ldirish uchun kartochka.

Topshiriq tipi HTML-sahifa ko‘rinishida saqlash bosqichida tanlanadi.

JMatch dastur mos keluvchi javoblarni topish sinov mashqini yaratadi. Bu topshiriqni yaratishda dasturda o‘ng va chap tomonda ro‘yxatlar kiritiladi(11-rasm) Chap tomonda o‘zgarmas ro‘yxat tashkil qilinadi. O‘ng tomonda esa aralash holda javoblar ro‘yxati tashkil qilinadi(12-rasm). Bunda ta‘lim oluvchi o‘zaro moslikni topishi kerak(13-rasm). Sinov mashqini boshqotirma yechishga qiyoslash mumkin.

Title		MACHING SYNONYMS	
		Left (ordered) items	Right (jumbled) items
▲	1	GOOD	NICE
▼	2	FAMOUS	POPULAR
	3	INTERESTING	AMAZING
	4	BEAUTIFUL	PRETTY
	5	BORING	TEDIOUS

61-rasm.

MACHING SYNONYMS
Matching exercise

Match the items on the right to the items on the left.

Check

GOOD key ▼
 FAMOUS key ▼
 INTERESTING key ▼
 BEAUTIFUL key ▼
 BORING key ▼

Check

Index =>

62-rasm

MACHING SYNONYMS
Matching exercise

Match the items on the right to the items on the left.

Check

GOOD NICE ▼
 FAMOUS POPULAR ▼
 INTERESTING AMAZING ▼
 BEAUTIFUL PRETTY ▼
 BORING TEDIOUS ▼


Check

Index =>


63-rasm

Topshiriqni kiritish

Hot Potatoes dasturini ishga tushiring. Ekranida ёки Potatoes menyusida JMatch dasturini tanlang – dasturning ishchi oynasi ochiladi.



64-rasm




65-rasm

Имя maydoniga topshiriq yoki test sarlavhasini kiritishingiz mumkin.


Chapdagi ustunga elementlarning fiksirlangan ro'yxati kiritiladi, o'ngdagi ustunga esa – keyinchalik aralashtiriladigan elementlar. Ulardan ro'yxatdagi fiksirlangan elementlarga mosliklarni tanlash amalga oshiriladi.

Elementlar to'g'ri ketma-ketlikda kiritiladi. Ular sahifa yuklanganda avtomatik ravishda aralashtiriladi.

Birinchi ikkita tip savollar uchun javoblarni chiqarishda metka (bayroqcha) o'rnatgan holda ro'yxatning almashtiriladigan elementlaridan birini fiksirlab qo'yish mumkin. Fiksirlangan kabi belgilangan moslik ekranda avtomatik o'rnatiladi va javobning oriyentir (ko'rsatma) bo'lib hisoblanadi(66-67-rasm).



66-rasm




67-rasm

Agar metka (belgilash) olib tashlansa, u holda savol boshqacha ko‘rinishda bo‘ladi.



68-rasm

Ikkinchi tipdagi topshiriqlarda **ОБЫЧНО** maydonidan foydalaniladi. Bu shunday maydonki, elementlar ro‘yxatida tanlash uchun ko‘rsatilgan, misolda bu ??? maydon(68-rasm).



68-rasm

Bunday matn sifatida quyidagilardan foydalangan ma'qul:


- ✓ bir yoki bir nechta so'roq belgilari dasturda ko'rsatilmaganda (*поумолчанию*) o'rnatilgan kabi;
- ✓ to'ldirilmagan maydon – u ekranda shunday qoladi;
- ✓ qo'shimcha noto'g'ri javob;
- ✓ to'g'ri javoblardan biri



69-rasm

Topshiriqni tahrirlash

Topshiriqlarni taxrirlashni **Управление списком** menyusidan bajarish mumkin. Siz tanlangan punktni o'chirish, javob qo'yish, javoblarni ko'chirish amallarini bajarishingiz mumkin(70-rasm).



70-rasm

Loyihani saqlashni amalga oshirish zarur, so'ngra topshiriqni HTML-sahifa ko'rinishida chop qilish.

HTML-sahifa ko'rinishida chop qilish


Bu dasturda topshiriq/testlarga uch turdagi turli formatlarni tadbiiq qilish mumkin:

- ✓ moslik o'rnatish uchun sichqoncha yordamida ko'chirishdan foydalanilganda *drag&drop* mexanizmini qo'llash;
- ✓ zarur punktni tanlash imkonini beruvchi ochiluvchi ro'yxatdan foydalanish;
- ✓ so'z va ifodalarni eslab qolish uchun kartochkalardan foydalanish.

Moslik o'rnatish uchun sichqoncha yordamida ko'chirishdan foydalaniladigan

topshiriqlarni yaratish uchun

Файл menyusida **Создать Веб страницу- Drag/Drop** для web страниц punktini yoki anjomlar panelidan mos tugmani tanlash zarur




71-rasm

Moslik oʻrnatish varianti ochiluvchi roʻyxat orqali tanlanadigan topshiriq yaratish uchun **Файл** menyusining **Создать веб-страницу** punktida **Веб-страница** punkt ostisi yoki anjomlar panelidan mos tugma tanlanadi.


Soʻz va ifodalarni saqlash uchun kartochkalar faqat menyu yordamida yaratiladi:

Файл – Создать веб-страницу – Flashcards для вебстраниц.



72-rasm


Drag&Drop mexanizmidan foydalanishga asoslarga topshiriqningtashqi koʻrinishi quyidagi rasmda keltirib oʻtilgan:



73-rasm

O‘quvchi moslikni o‘rnatishi uchun o‘ng tomondagi ihtiyoriy elementda sichqoncha chap tugmasini bosadi va uni chap tomondagi ustunga ko‘chiradi.


Ochiluvchi ro‘yxatdan foydalanilgan topshiriq quyidagi rasmda keltirilgan



74-rasm

Moslik o‘rnatish uchun ochiluvchi ro‘yxatdan zarur punkt tanlanadi.

Kartochkalaridan foydalanishga asoslangan topshiriqlarni bajarishda ekranda avval topshiriqning bitta maydoni matni bilan kartochka paydo bo‘ladi. **Следующая карточка** tugmasi bosilganidan so‘ng, moslikning to‘g‘ri varianti bilan ikkinchi kartochka ochiladi.



75-76-rasm

Следующая карточка tugmasi yordamida navbatdagi mosliklar juftligiga o'tish amalga oshiriladi. Moslik to'g'ri o'rnatilgan kartochkalarni Удалить карточку tugmasi yordamida ro'yxatdan o'chirib tashlash mumkin.

Ketma-ketlikni tiklash (JMix)

JMix dasturi gapdagi so'zlar aralashmasidan mashq yaratadi. Bunda to'g'ri javobni aniqlash uchun bir necha so'zlarni to'g'ri ketma-ketligini tashkil qilish kerak.[6.B.60] Ya'ni gapdagi ketma-ketlik aralash ko'rinishda taklif qilinadi(9-rasm). Bu sinov mashqida ta'lim oluvchi o'yin o'ynayotgandek xis qiladi o'zini (10-rasm). Sinov mashqini bajarish jarayonida, gaplarni grammatik tuzilishini to'g'ri tashkil qilishni ham avtomatik ravishda o'rganib boradi.

Complete the sentences	
Main sentence	Alternate sentences
you a like with your breakfast ? Would grapefruit	1 Would you like a grapefruit with your breakfast? 2

78-rasm

Complete the sentences
Mixed-up sentence exercise

Put the parts in order to form a sentence. When you think your answer is correct, click on "Check" to check your answer. If you get stuck, click on "Hint" to find out the next correct part.

? grapefruit a your with Would you breakfast like

=>



79-rasm.


Topshiriqning bunday turi, boshqa fanlar uchun qiziqarli topshiriqlarni yaratish mumkin bo'lsa ham, lingvist-o'qituvchilar uchun juda qulay.

Mashq uchun manba so'z va gaplar bo'lishi mumkin. har bir so'z yoki gap uchun

alohida topshiriq yaratiladi. Topshiriqning mazmuni – gap uchun soʻzlarni, soʻz uchun esa harflarni yoki boʻgʻinlarni toʻgʻri tartibda joylashtirish.

Topshiriqni yaratish

Dasturni ishga tushirish uchun **Hot Potatoes** ishga tushiriladi, **Potatoes** menyusida **JMix** tanlanadi yoki ekranda mos kartoshka tanlanadi.




80-rasm

Имя maydonida topshiriq nomi yoki tapshiriqning oʻzini kiritish lozim. **Основное предложение** maydonida soʻz, soʻz birikmasi yoki gap kiritiladi. Zarur tartibni yaratish lozim tanlanadigan har bir qism alohida satrda kiritilishi lozim.

Qoʻshimcha sozlashlar

Альтернативные (*Muqobil*) maydonlari gapni hosil qilish uchun soʻzlarning mumkin boʻlgan turli tartibdagi variantlari bilan toʻldiriladi.



81-rasm


Ishchi oynada bu muqobil gaplar uchun **Настройки альтернативного предложения** bo‘limida qo‘shimcha sozlanishlar o‘rnatiladi:

✓ berilgan gapning barcha so‘zlari va tinish belgilari ishtirok etmaydigan gaplardan foydalanishga ruxsat;

✓ agar variantda berilgan gapning barcha so‘zlari va tinish belgilaridan foydalanilmasa, ogohlantirilsin.


Gapdagi birinchi so‘z (bosh harf bilan boshlangan) mashqni bajarish jarayonida ko‘rsatma bo‘lib qolmasligi uchun quyidagilarni bajarish lozim:

Файл конфигурации muloqot oynasida **Подсказки/Комментарии** qo‘yilmasi tanlanadi va **Заглавные буквы всегда прописью** satrida bayroqcha o‘rnatiladi;



82-rasm

✓ Topshiriqni HTML-sahifa ko‘rinishida chop qilishda birinchi so‘zni, gapda qayerda kelishidan qat’iy nazar, katta harf bilan yozishdan voz kechish lozim. Bu haqida xabar beruvchi muloqot oynasida



83-rasm

Нет(Yo‘q) javobini tanlang.


Izoh. Agar gapda birinchi so‘z ot (masalan, ism, shahar nomi va h.k.) bo‘lsa **Yes (Da)** javobi tanlanadi.

Topshiriqni HTML-sahifa ko‘rinishida chop qilish

JMix dasturi yordamida yaratilgan topshiriqlar ikki xil formatda taqdim etilishi mumkin:

- ✓ elementlarni sichqoncha chap tugmasini bosib tanlash (**Файл – Создать вебстраницу – Вебстраница для браузера**);
 - ✓ elementlarni sichqoncha yordamida ko‘chirish (**Файл – Создать вебстраницу – Drag/Drop для вебстраниц**)

Elementlar ketma-ketligi sichqoncha chap tugmasini bosish bilan tiklanadigan topshiriqlarni yaratish uchun quyidagi ketma-ketlik bajariladi: **Файл – Создать вебстраницу – Вебстраница для браузера** yoki anjomlar panelidan mos tugma tanlanadi.



84-rasm

Soʻzda (harfda) sichqoncha chap tugmasini bosish uni natija satriga koʻchirilishini taʼminlaydi(85-rasm).



85-rasm


Elementlar ketma-ketligini sichqoncha yordamida koʻchirish mumkin boʻlgan topshiriqlarni yaratish uchun menyudan **Файл – Создать вебстраницу – Drag/Drop для вебстраниц** punkti tanlanadi.



86-rasm

Talabalar harf yoki soʻzni sichqoncha chap tugmasini bosib tanlashi vashunchaki uni natijalar satriga koʻchirib oʻtkazishi mumkin.

TheMasher. Biz yuqorida Hot Potatoes beshta sinov mashqlarini yaratuvchi dasturdan iborat deb aytib oʻtgan edik. Lekin oltinchi dastur ham bor. Unda sinov mashqlari yaratilmaydi. Uning vazifasi mashqlar toʻplamlarini bir yaxlit roʻyxat shaklini tashkil qilib, bir faylga jamlash(14-rasm).



87-rasm

Bir faylni yuklab, barcha sinov mashqlarini bajarish imkoni paydo boʻladi. Roʻyxatni oʻqituvchi shakllantiradi. Yaʼni maʼlum bob yoki paragrafga tegishli boʻlgan sinov mashqlarini bir faylga jamlab, uni taʼlim oluvchiga taqdim qilishi yoki elektron darsliklarning sinov qismiga joylashi mumkin. Yaratilgan fayllar HTML formati koʻrinishda boʻlganligi va aksariyat elektron darsliklar shu tilda yaratilayotganligi sababli, mashqlarni biriktirishda hech qanday muammo tugʻilmaydi.[7.B.72]

Jquiz, Jcloze, Jcross, Jmix, Jmatch dasturlarida topshiriqlar yaratish jarayoni har biror bir tilni o'rgatayotgan pedagogning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi. Yaratilgan topshiriqlar o'quvchilar bilimini mustahkamlab, ularning faolligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Evans V., Dooley J., Wright S. Information Technology Издательство: Express Publishing, 2011, 122p. P.98
2. Громов Ю.Ю. ва бошқ, Информационные технологии. Издательство: ФГБОУ ВПО “ТГТУ”. Тамбов. 2015 г, .-105с
3. David Watson and Helen Williams Computer Science//IGCSE is the registered trademark of Cambridge International Examinations. Буюк Британия/Hodder Education. An Hachette UK Company London NW1 3BH 2014, 278p., 2014. P190-200
- 4.M.Mamarajabov, S.Tursunov. Kompyuter grafikasi va Web-dizayn. Darslik. T.: “Cho‘lpon”, 2013 .-B.61-67.
- 5.U.Yuldashev, M.Mamarajabov, S.Tursunov. Pedagogik Web-dizayn. 0‘quv qo‘llanma. T.: “Vorisi”, 2013.-B.42-48
- 6.M.Aripov, M.Fayziyeva, S.Dottayev. Web texnologiyalar. 0‘quv qo‘llanma. T.: “Faylasuflar jamiyati”, 2013. -B. 56-77.
7. Buxoro davlat universiteti Ilmiy axboroti, 2019 yil 4-son. -B 69-73
8. Stelle Cottrell, Neil Morris Study Skills Connected. Буюк Британия/Palgrave Macmillan 2013, 183p. P 147-158
- 9.R.R.Bokiyev, A.O. Matchanov, Informatika, “O‘qituvchi”, Toshkent, 2010, 374 bet.B-200-254
- 10.H. Sattorov A. Informatika va axborot texnologiyalari, Darslik, Toshkent, 2013, 320 bet.B-300-319